



BANKLARNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHNING ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLARI

DSc Umarova Malika

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0006-9895-9288
malika.umarova86@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, banklarni transformatsiyalash jarayonining nazariy asoslari tadqiq etilib, xorij olimlarining transformatsiyalashga doir ilmiy-nazariy qarashlari va mualliflik ta'riflari keltirib o'tilgan. Shuningdek, transformatsiya jarayonining zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda bank samaradorligiga ta'siri, mijozlarga bo'lgan yondashuvlarni ishlab chiqish, transformatsiyalashda bank xodimlarini malakasini oshirish va malakali kadrlarni bank amaliyotiga jalb etishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: bank, raqamli transformatsiya, mobil ilovalar, raqamlashtirish, mijozlarni identifikatsiyalash.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВ

DSc Умарова Малика

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические основы процесса трансформации банков, рассмотрены научно-теоретические взгляды зарубежных учёных и приведены авторские определения, связанные с трансформацией. Кроме того, проанализировано влияние процесса трансформации на повышение эффективности деятельности банков при внедрении современных технологий, разработку новых подходов к обслуживанию клиентов, а также проведены исследования, направленные на повышение квалификации банковских сотрудников и привлечение высококвалифицированных кадров в банковскую практику.

Ключевые слова: банк, цифровая трансформация, мобильные приложения, цифровизация, идентификация клиентов.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE DIGITAL TRANSFORMATION OF BANKS

DSc Umarova Malika

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article explores the theoretical foundations of the process of bank transformation and presents the scientific and theoretical views of foreign scholars, as well as the author's own definitions related to transformation. Furthermore, the study examines the impact of transformation processes on improving banking efficiency through the implementation of modern technologies, the development of customer-oriented approaches, and the enhancement of employees' professional qualifications. In addition, research has been conducted on attracting highly qualified specialists to banking practice.*

Keywords: *banking, digital transformation, mobile applications, digitalization, customer identification.*

Kirish.

Banklarni transformatsiyalash mijozlar bilan ishlash tajribasini to'liq o'rganish va mavjud talabni tahlil qilish hamda yangi ehtiyoj va talabni aniqlash orqali bank siyosatini o'zgartirishga olib keladi. Aynan bank xizmatlari iste'molchilari banklarning innovatsion rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, chunki ular o'z ehtiyojlarini ifodalash orqali zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiradi.

Mijozlar bank xizmatidan foydalanganda, ularning xizmat ko'rsatish sifati, tezkorligi hamda turlariga ko'ra baho beradi. Shuning uchun bank sektori mijozlar bilan ishlash tajribasini doimiy ravishda o'rganishi, xodimlar ishidagi kamchiliklarni aniqlashi, mijozlarning talabidan kelib chiqqan holda, yangi xizmat turlari joriy etishi kerak, chunki yangi mijozlar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, ilg'or xizmat ko'rsatish usullarini talab qilishi mumkin.

Banklarda transformatsiyalash jarayonida ichki tartib-qoidalarini o'zgartirish ham bank sektorini raqamli rivojlantirishning muhim shartidir. Raqamli va mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, boshqaruv, rahbarlik, nazorat tizimlarini takomillashtirish hamda kiberxavfsizlik darajasini oshirish zarur. Banklarning to'liq raqamlashtirishga o'tishidagi asosiy to'siqlardan biri – bu raqamli iqtisodiyotda ishlash uchun zarur ko'nikmaga ega xodimlarning yetishmasligidir.

Adadiyotlar sharhi.

Raqamli o'zgarishlar, bank tizimida masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarini yo'lga qo'yilishi, moliya bozorida Fin tech larni rivojlanishi an'anaviy bank tizimini moliya bozorida o'rnini saqlab qolishi uchun tizimni qaytadan transformatsiyalash orqali moliya korporatsiyalar bilan sog'lom raqobat muhitini tashkil etish imkonini berdi.

Umuman olganda bank tizimi an'anaviy bank tizimidan raqamli tizimga o'tish borasida ham olimlar o'z ilmiy yondashuvlarini keltirib o'tganlar. Ayrim olimlar moliya tizimida innovatsiyalarni rivojlanishi bank tizimini ham shunga moslashishini talab etadi degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, boshqa bir guruh olimlar banklarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etilishida bank mijozlarining talablarini inobatga olish kerakligiga doir fikr bildirib o'tganlar. Rossiyalik olim Muravyova (2005) "moliya tizimi banklarni yangi texnologiyalardan foydalanishga undaydi aytish mumkinki rivojlangan mamlakatlar rivojlanish jarayonining innovatsion turiga o'tdi, shuning uchun tashqi muhit banklarni o'zgarishiga undaydi va ular texnologik asos yaratadi" degan g'oyani ilgari surgan.

Radkovskaya (2019) o'z ilmiy tadqiqotlarida "globallashuv sharoitida xar bir bank va bank tizimi o'z optimal boshqaruv modelini izlashdan iboratdir deb, u iqtisodiyotda risklarni kamaytirish va iqtisodiyotni rivojlantiradi" degan.

Kurmanova, Galimardanov, Sultangareev (2021) fikriga ko'ra, "Rossiya Federatsiyasida bank sektori raqamli tizimiga o'tishi ma'lumotlarni tahlil qilish, biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, bank xodimlarining kadrlar salohiyatini taqsimlash jihatlaridan moliyaviy xizmatlar taqdim etish tizimini o'zgartiradigan fintex-ekotizimlar rivojlanishiga xosdir" degan fikrni ilgari surgan.

"Avvallari bank faoliyatining samaradorligi mahsulot va xizmatlarni sotish maqsadli ko'rsatkichlarini oshirish orqali baholanardi, ammo raqamli iqtisodiyot davrida banklar zamonaviy raqamli muammolar bilan hisoblashishlariga to'g'ri keladi: hozirgi vaqtda banklar shoshilinch ehtiyojlari bilan mijozlarga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Internetga ulangan mobil telefondan foydalanish orqali milliardlab potensial mijozlarga xizmat ko'rsatish mumkin, bu esa banklarni raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolish uchun foydalaniladigan raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirishga majbur qiladi. Barclays banki onlayn-banking tizimini joriy qilgan birinchi banklardan biri: endi mijozlar bank filiallariga oyiga o'rtacha ikki marta tashrif buyurishadi, mobil bank xizmatlaridan esa oyiga 18-martagacha foydalaniladi" (Пайзберг и др., 1997).

Umuman olganda "transformatsiya... — iqtisodiy faoliyat tuzilmalari, shakllari va usullarini o'zgartirish, uning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish" degan ma'noni bildirib, bu tushuncha iqtisodiy tizimning shunday o'zgarishlari bilan bog'lash kerakki, bunda uning sifat jihatidan qayta shakllanishi va rivojlanishi yuz beradi (Галпер, 2020). Tizimning sifat o'zgarishi, albatta, uning tuzilishini o'zgartirish bilan birga sodir bo'lgani sababli, bu jarayonning natijasi va asosi sifatida tizim tarkibini o'zgartirish namoyon bo'ladi, bu esa iqtisodiy faoliyat shakllari va usullarining o'zgarishiga olib keladi.

Banklarni transformatsiyalash jarayonlar nuqtayi nazaridan Deloitte Touche Tohmatsu Limited mutaxassisleri K.Edelman, H.Bachman, A.Kumar Saha va A.Ier, "inflyasiya, yuqori foiz stavkalari ta'minot zanjiridagi uzilishlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan retsessiya tijorat banklari uchun tahlikali muhitni shakllantirmoqda (Галпер, 2020). Markaziy banklar tomonidan hisob stavkasining ko'tarilishi ham tijorat banklarining sof foizli daromadlarining oshishini ta'minlab bermadi. Tijorat banklari yuqori darajada foizlar olishga intilayotgan mijozlarni saqlab qolish uchun depozit mahsulotlari bo'yicha risk darajasini oshirishga majbur bo'lishmoqda. Sodiqlik darajasi yuqori bo'lgan mijozlar bazasiga ega bo'lishlariga qaramasdan, korporativ va chakana mijozlar sonini ko'paytirish borasida qat'iy raqobatga duch kelishlari mumkin. Ular katta hajmli ma'lumotlarni qayta ishlash asosida mijozlar uchun individual raqamli yechimlar va individual tavsiyanomalar ishlab chiqishlari lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi modellariga o'tishni talab qiladi" degan fikrni ilgari surgan. Raqamli o'zgarishlar, bank tizimida masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarini yo'lga qo'yilishi, moliya bozorida Fin tech larni rivojlanishi an'anaviy bank tizimini moliya bozorida o'rnini saqlab qolishi uchun tizimni qaytadan transformatsiyalash orqali moliya korporatsiyalar bilan sog'lom raqobat muhitini tashkil etish imkonini berdi.

Umuman olganda "transformatsiya... – iqtisodiy faoliyat tuzilmalari, shakllari va usullarini o'zgartirish, uning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish" (Hussain, 2025) degan ma'noni bildirib, bu tushuncha iqtisodiy tizimning shunday o'zgarishlari bilan bog'lash kerakki, bunda uning sifat jihatidan qayta shakllanishi va rivojlanishi yuz beradi. Tizimning sifat o'zgarishi, albatta, uning tuzilishini o'zgartirish bilan birga sodir bo'lgani sababli, bu jarayonning natijasi va asosi sifatida tizim tarkibini o'zgartirish namoyon bo'ladi, bu esa iqtisodiy faoliyat shakllari va usullarining o'zgarishiga olib keladi.

Galper (2020) banklarni transformatsiyalashga doir olib borgan tadqiqotida "...global nobarqaror muhit sharoitida bank faoliyatining transformatsiyalanishi muqarrarligini

tasdiqlaymiz va bu ko'p kanali xizmat ko'rsatish tamoyilidan bir kanali xizmat ko'rsatish tamoyiliga o'tish orqali iste'molchilarning raqamli turmush tarziga kirib borish, mijozlarning moliya bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish va bank xizmatlari ko'lamining kengayib borishida o'z ifodasini topadi" deb ta'kidlagan. "Galper o'z tadqiqotlarida global nobarqarorlik sharoitida bank faoliyatining transformatsiyalanishi mijozlarga yo'naltirilgan biznes modelni amaliyotga tatbiq etish zarurati bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi (Галпер, 2020).

Hussain (2025) esa tijorat banklari faoliyatida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlarini turlarga ajratib tahlil qilgan bo'lib, uning ta'kidiga ko'ra, bu jarayonlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- "jarayonlarni avtomatlashtirish. Har kunlik operatsiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirish va aniqlik darajasini oshirish imkonini beradi. Operatsiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) sun'iy ong (AI) va boshqa texnologiyalar asosida amalga oshiriladi;

- raqamlashtirish. Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Raqamlashtirishga misol sifatida onlayn-banking, mobil banking, raqamli banking modellarini keltirish mumkin;

- jarayonlar reinjiringi. Jarayonlar reinjiningi o'z tarkibiga mavjud jarayonlarni qayta loyihalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

- ma'lumotlar tahlili. Ma'lumotlar tahlili operatsiyalarni yaxshilash, tendensiyalarni aniqlashga asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun amalga oshiriladi. U prognoz analitikasi, mijozlar siyosati va risklar tahlilida qo'llanilishi mumkin;

- infratuzilmani modernizatsiyalash. Infratuzilmani modernizatsiya qilish tarkibiga bank faoliyati ko'lamini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun bulutli hisob-kitoblar, virtual tizim va boshqa texnologiyalarni kiritish mumkin;

- risklarni boshqarish. Risklarni boshqarish tarkiban risklarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish bo'yicha strategiya va jarayonlar amalga oshirishdan iborat. Unga risklarni baholash va talablarga rioya qilish protseduralarini joriy etish, xavfsizlikni ta'minlash va risklarni pasaytirish strategiyalarini" (Hussain, 2025) kiritilgan.

Shashkina (2022) o'z tadqiqot ishida "Moliyaviy texnologiyalar ta'siri ostida bank sektorining transformatsiyasi – bank faoliyatining tashkiliy va boshqaruv yo'nalishlariga tegishli bo'lgan yangi raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi hisobiga bank sektoridagi tuzilmaviy o'zgarishlardir. Moliyaviy texnologiyalar deganda moliya sektorida innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish imkonini beruvchi unikal texnologiyalar nazarda tutiladi. Bank sektorida eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalar sirasiga sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn texnologiyalar, mobil ilovalar kiradi. Bank sektoridagi transformatsiya jarayonlari sektorning institutsion transformatsiyasi, bank xizmatlarini ko'rsatish kanallari transformatsiyasi va biznes-modellar transformatsiyasini qamrab oladi. Ko'rib chiqilayotgan yo'nalishlar nuqtai-nazaridan, moliyaviy texnologiyalar bir tomondan, bank xizmatlarini ko'rsatishda raqobat pozitsiyasini mustahkamlash hamda bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish, ikkinchi tomondan bank faoliyati va uning kelajagi uchun xavflarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida talqin etilishi mumkin". Banklarni transformatsiyalash bank xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy usullarini keng joriy etishni nazarda tutadi. "Bunda asosan bank filiallari soni kamayishi, kredit berishda yoki mablag'larni investitsiya qilishda onlayn usuldan keng foydalanish" nazarda tutiladi. Shuningdek, xorijiy olimlar va xorij kompaniyalari tomonidan banklarni transformatsiyalashga doir ilmiy-amaliy taklif ta'riflar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli, obyektivlik tamoyili, kuzatish, qiyosiy tahlil,

usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Banklarni transformatsiyalash strategiya ishlab chiqish va qo'llashga asoslangan kompleks yondashuvlar talab qiladi. Banklarni transformatsiyalash moliya tizimining barcha jabhalari, shu jumladan, banklarni boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Shuning uchun maksimal samaradorlikka erishish uchun bank sektorini transformatsiyalash boshqa rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Banklarni transformatsiyalash strategiyasi to'rtta asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- xizmatlar narxini shakllantirish jarayonini o'zgartirish;
- raqamlashtirishning moliyaviy jihati;
- tashkiliy strukturani o'zgartirish.

Banklarni transformatsiyalash strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yuqorida aytib o'tilgan rivojlanish yo'nalishlarini muvofiqlashtirish zarur bo'lib, bu ko'p jihatdan bankning operatsion modeliga bog'liqdir.

1-jadval

“Banklarni transformatsiyalash” tushunchasiga doir berilgan ta'riflar

Muallif	Ta'rif
Rossiya Aloqa va kommunikatsiyalar vazirligi	Biznesni keng qamrovli o'zgartirish yangi biznes modellari va mijozlar bilan aloqa kanallariga muvaffaqiyatli o'tish, yetkazib beruvchilar, mahsulotlar, biznes-ishlab chiqarish jarayonlari, korporativ madaniyatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash orqali ma'lumotlarni boshqarishga yangi yondashuvlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
Stolterman E., Croon F. A. (2004)	Bu – boshqaruv tizimining tubdan o'zgarishidir. Raqamli transformatsiya (DT yoki DX) strategiyalar, modellar, operatsiyalar, mahsulotlar, marketing yondashuvlari va maqsadlarni qayta belgilash orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida amalga oshiriladi.
Bekker D. (2018)	Bu subyektiv fikrlaydigan “aqli” mashinalar tarmog'iga (ya'ni juda murakkab birliklar) selektiv birlashma jarayonidir.
Proxorov A., Konik L. (2019)	Forrester – raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, operatsion samaradorlik va tezkorlikka erishish; Gartner – biznes modeli bo'lib, qiymat yaratish va daromad olishga imkon beradi; Deloitte – ulanishlarning eksponensial o'sishi; Altimeter Group – har qanday aloqa nuqtasida mijozlarni jalb qilish.
Paskova A.A. (2020)	Bu doimiy o'zgarish jarayoni kompaniya ekotizimining barcha ishtirokchilari, jumladan, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va hamkorlar faoliyatini ilg'or biznes texnologiyalari asosida optimallashtirishga qaratilgan.
SAP Insights (2021)	Mijozlar tajribasi, biznes modellari va operatsion jarayonlarni tubdan qayta ko'rib chiqish – bu qiymat yaratishning yangi usullarini joriy etish, daromad va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvdir.
Samuels M. (2021)	Raqamli texnologiyalarning barcha biznes sohalariga integratsiyalashuvi kompaniyaning ish jarayonlaridagi fundamental o'zgarishlarga olib keladi.
AWG (2021)	Raqamli texnologiyalarning biznesning barcha sohalariga integratsiyalashuvi kompaniya faoliyatida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa operatsion strategiya va ish yuritish usullarini takomillashtirish hamda mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashga olib keladi.
Rijkov V. (2022)	Bu raqamli muhitda samarali ishlay oladigan yangilangan model yaratish uchun biznesni moslashtirish jarayonidir. Texnologik sikl – bu strategik boshqariladigan jarayon bo'lib, biznesni raqamli iqtisodiyot muammolariga moslashtiradi.

Manba: ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif ishlanmasi

Mijozlarni ushlab qolish va yangi mijozlarni jalb etish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va oxir-oqibat banklarni mijozlar uchun yanada jozibador qilish – bularning barchasi banklarning transformatsiyalash natijasidir. Tizimning raqamlashtirilishi tufayli mijozlar bank xizmatlaridan 24/7 davomida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bank xarajatlarining kamayishi individual bank mahsulotlari narxlarini pasayishiga olib keladi.

Bank tizimini transformatsiyalash avtomatlashtirish darajasini oshiradi, operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartiradi, ma'lumotlar tahlilini yaxshilaydi, bu esa mijozlar va xodimlar bilan o'zaro aloqani rivojlantiradi. Shuningdek, mahsulotlar va xizmatlar sifati oshishiga ham olib keladi.

Banklarni transformatsiyalash, odatda, bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Joriy holatni baholash orqali bank o'z rivojlanish strategiyasini qayta ishlab chiqish, yangi xizmat turlarini joriy etish, bankning iqtisodiy salohiyatini baholash, infratuzilmaning joriy holati, integratsiyalashgan tizimlar va texnologiyalarini tahlil qiladi.

2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichida banklar bulutli texnologiyalar, Big Data ma'lumotlar bazasi, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlilida sun'iy intellektdan foydalanish va boshqa innovatsion raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni boshlaydilar.

3. Xodimlarni tayyorlash banklarni transformatsiyalashni samarali amalga oshirishda asosiy dastak hisoblanadi. Transformatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan malakali kadrlar, jumladan, data tahlilchilar, HR menejerlar, marketologlar va ekonometrikalarni tayyorlash hamda ularni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

4. Monitoring banklarni transformatsiyalash natijalarini kuzatib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish hamda muvaffaqiyatli transformatsiyalashni amalga oshirish jarayonlarini optimallashtiradi.

5. Rivojlanish va transformatsiyalash jarayoni doimiy va uzluksiz bo'lib, banklarning raqobatbardoshligini oshirishda banklarni zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini rivojlantirish va bank strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Ilmiy-nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: ***“Banklarni transformatsiyalash – bu bankning biznes modeli, operatsiyalari, texnologiyalari va mijozlarga xizmat ko'rsatish usullarini yangilash jarayoni bo'lib, banklarning raqobatbardoshligini oshirish, samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi”.*** Banklarni transformatsiyalash yordamida bank xizmatlarini avtomatlashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida innovatsion xizmatlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish jarayoni banklarni transformatsiya qilishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun kompleks yondashuv va aniq belgilangan metodologiyani talab qiladi. Banklarni transformatsiya qilish samaradorligini oshirish uchun puxta ishlab chiqilgan strategik reja, innovatsion yo'nalishlarda asosiy maqsad va ustuvorliklarni aniqlash, hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan aniq harakat rejalarini shakllantirish zarur bo'ladi. Transformatsiya jarayonida quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

- Moliyaviy xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlarga zamonaviy va samarali moliyaviy yechimlarni taqdim etish maqsadida bir qator ustuvor tashkiliy va texnologik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi;

- Bank tizimida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishda fintech kompaniyalari va innovatsion startaplar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali moliyaviy xizmatlar sifati va ko'lamini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va raqamli moliyaviy mahsulotlar assortimentini kengaytirish bank faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi lozim;

- Bank xodimlarining malaka va kompetensiyalarini oshirish, ular uchun zamonaviy texnologiyalar va ilg'or ish uslublari bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni muntazam yangilab borish maqsadida doimiy o'quv kurslari, seminar va treninglar tashkil etish orqali kadrlarning raqamli transformatsiya jarayoniga moslashuvchanligini ta'minlash talab qilinadi;

- Bank xizmatlarini mijozlarga yanada moslashtirish, ularning ehtiyoj va kutgan natijalarini chuqur o'rganish maqsadida data analytics (ma'lumotlar tahlili) vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yondashuv orqali xizmatlar sifatini oshirish hamda marketing strategiyalarini takomillashtirishga erishiladi. Shu bilan birga, mijozlardan muntazam ravishda fikr va takliflarni yig'ish orqali xizmat ko'rsatish jarayonini doimiy rivojlantirish imkoniyati yaratiladi;

- Mijozlarni identifikatsiya qilish jarayonini xavfsiz va qulay shaklda tashkil etish maqsadida biometrik autentifikatsiya texnologiyalaridan – barmoq izi, yuzni aniqlash, kaft tomirlarini skanerlash kabi metodlardan foydalanish xavfsizlikni oshirishning samarali vositasi sifatida tatbiq etilishi lozim;

Umuman olganda, bank tizimida raqamli xizmatlarga o'tish jarayonida bir qator muhim tashqi va ichki omillarni chuqur tahlil qilish va ularni kompleks tarzda inobatga olish zarur. Birinchidan, raqamli va innovatsion texnologiyalarning global miqyosda jadallik bilan rivojlanayotgani moliyaviy xizmatlar bozori uchun yangi talab va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat banklarning faoliyat yuritish modelini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash zaruratini yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Hussain S. (2025) Bank transformation practices around the operation, maintenance monitoring, and chaos engineering. <https://medium.com/cloud-believers/banktransformation-practices-around-the-operation-maintenance-monitoring-and-haosengineering-c7e958745815>.

Shashkina E.O. (2022) Vliyaniye finansovykh texnologiy na transformatsiyu bankovskogo sektora ekonomiki: zarubejnyy i otechestvennyy opyt. Dissertatsiya na sois. uchen.step. kand. ekon. nauk po spes. 5.2.4. Finansy. –Moskva. 35-36 str.

Галпер М.А. (2020) Трансформация банка в условиях глобальной неустойчивой среды. Диссерт. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук по спец. 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит. Санкт-Петербург. 19 стр.

Курманова Д.А., Галимарданов А.Р., Султанраев Д.Р. (2021) Цифровая трансформация российского коммерческого банка // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия экономика. № 1 (35), С. – 49-61.

Муравева, А.В. (2005) Банковские инновации: мировой опыт и российская практика: дис. на соиск. канд. экон. наук. / А.В. Муравева. –М., – 137 с.

Радковская, Н.П. (2019) Методология финансового менеджмента и управления прибылью кредитных организаций: автореф. ... д-ра экон. наук // Научная библиотека диссертаций и авторефератов диссертация [Электронный ресурс]. –

УРЛ: <http://www.dissercat.com/content/metodologiya-finansovogo-menedzhmenta-i-upravleniya-ribylyu-kreditnykh-organizatsii#ixzz5gcjZptY0> (дата обращения: 07.03.2019).

Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. (1997) Современный экономический словарь. –М.